

“Biznesni rivojlantirish banki” ATBning 2025-yil yakunlari to‘g‘risida hisoboti

Bankning umumiy kapitali 5 trln. 269 mlrd 400 mln. so‘mni tashkil etdi.

Bank kapitali 974 mlrd. so‘mga yoki 22,7 foizga o‘sgan.

Bankning jami aktivlari 38 trln. 167 mlrd 731 mln. so‘mga yetdi.

Jami aktivlar o‘tgan yilga nisbatan 6 trln. 34 mlrd. so‘mga oshdi. (Bu 18,8 foizga o‘shni anglatadi).

Daromad keltiruvchi aktivlari 32 trln. 184 mlrd 800 mln. so‘mga yetdi.

Bankning daromad keltiruvchi aktivlari o‘tgan yilga nisbatan 5 trln. 382 mlrd. so‘mga oshdi yoki 20,1 foizga o‘sh kuzatildi.

Daromad keltiruvchi aktivlarning bank jami aktivlaridagi ulushi 84,3 foizini tashkil qildi.

Bankdagi banklararo depozitlari qoldig‘i 4 trln. 417 mlrd 500 mln. so‘mga yetdi.

Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 1 trln. 32 mlrd 200 mln. so‘mga oshdi. (30,5 foiz o‘shga erishilgan).

2026-yilning 1-yanvar holatiga, bankning kredit qo‘yilmalari 24 trln. 551 mlrd 958 mln. so‘mga yetdi.

Bu borada o‘tgan yilga nisbatan 2 trln. 21 mlrd 124 mln so‘mga yoki 9,0 foizga o‘shga erishilgan.

Bankdagi depozit baza 15 trln 241 mlrd 200 mln so‘mni tashkil etdi. O‘tgan yilga nisbatan 4 trln. 476 mlrd 300 mln. so‘mga oshdi. Bu 41,6 foizga o‘sh demakdir.

Bankning jami mijozlari soni 1 mln. 865 ming 608 tadan oshdi.

Xususan, jismoniy mijozlar soni 1 mln. 768 ming 254 tani;

yuridik shaxs maqomidagi mijozlar soni 97 354 tani tashkil etdi.

Bankdagi xizmat ko‘rsatish ofislari soni Bosh amaliyotlar

boshqarmasi bilan birgalikda 76 ta;

Xalqaro pul o'tkazmalari shahobchalari soni esa 156 ta;

Valyuta ayirboshlash shoxobchalari soni - 198;

24/7 shahobchalari soni - 327 ta.

“Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash” kompleks dasturi doirasida 7 607 nafar tadbirkorga 821 mlrd. so'mlik kredit mablag'lari ajratildi. Buning natijasida 7 810 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bankka respublika bo'yicha 610 ta mahalla biriktirilgan. 2025-yilda mazkur mahallalarda jami 4 trln. 611 mlrd. so'm kredit ajratilib, 279 ming 545 nafar aholi bandligi ta'minlandi.

Shundan 100 ming 319 nafari Doimiy ishga joylashtirildi va 179 ming 226 nafari Tadbirkorlikka jalb qilindi.

Xususan, “Sayxunobod tajribasi” asosida xonadonbay ishlash tizimi orqali jami 28 ming 016 ta mikroloiyahalar amalga oshirilib, 704 mlrd. so'm kredit ajratildi. Natijada 57 ming 611 nafar aholi bandligi ta'minlandi.

“Uychi tajribasi” asosida 1 368 ta uchrashuvlar o'tkazilib, 5 620 ta murojaatlar ko'rib chiqildi va hal qilindi. Buning natijasida 8 688 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

2025-yilda xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida “Ayol tadbirkor” kredit mahsuloti orqali 1 530 nafar tadbirkor ayollarga 192,4 mlrd. so'm kredit mablag'lari ajratildi. Buning natijasida 2 300 ta yangi ish o'rinlari vujudga keldi (Z.Soburova).

“Biznesni rivojlantirish banki” tomonidan 2025-yilda 10 trln. 380 mlrd. so'm kredit ajratildi.

Bank tomonidan 6 919 nafar fuqaroga 1 trln. 892 mlrd. so'mlik ipoteka kreditlari ajratildi.

Shu jumladan, 3 039 nafar fuqarolarga 909,5 mlrd. so'mlik ipoteka kreditlari subsidiya to'lovlari asosida ajratildi.

Qayd etish kerak, bank tomonidan ipoteka kreditlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 202 foizga yoki 953,1 mlrd. so'mga ko'p ajratilgan.